

Toshkent viloyati qurilish va pudrat ishlari umumiy hajmi.


2018 YIL YANVAR-SENTYABR OYLARI UCHUN

2018 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish va pudrat ishlari hajmi 1647,4 mlrd.so'm miqdorida baholandi va mos ravishda o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 120,6 foizni tashkil etdi.




Toshkent viloyati yanvar-sentyabr oylari davomida bajarilgan qurilish va pudrat ishlar hajmi bo'yicha Respublikada 8-o'rinni egalladi.


Viloyat bo'yicha qurilish va pudrat ishlari amalga oshirilishi bo'yicha tuman va shaharlar kesimida eng yaxshi ko'rsatkich Zangiota tumanida - 246,9 mlrd.so'm, Olmaliq shaharda - 193,5 mlrd.so'm, Qibray tumanida - 173,7 mlrd.so'm, Yuqorichirchiq tumanida - 136,0 mlrd.so'm, Bekobod shaharda - 110,2 mlrd.so'm kuzatildi.



Viloyatda qurilish va pudrat ishlari boyicha tuman va shaharlar kesimida o'tgan yilga nisbatan eng yaxshi ko'rsatkich Olmaliq shaharda – 272,4 foiz, Zangiota tumanida – 148,6 foiz, Chirchiq shaharda – 129,3 foiz, Ohangaron shaharda – 118,3 foiz, Toshkent tumanida – 117,5 foiz o'sish sur'ati kuzatildi.




Qurilish pudrat ishlari hajmi sektorlar bo'yicha (Mlrd.so'mda)



1. Yirik korxonalar tomonidan;

Toshkent viloyatida yanvar-sentyabr oylari davomida yirik qurilish pudratchi korxonalar tomonidan 427,9 mlrd. soʻmlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, oʻtgan yilga nisbatan 199,3 foizni, jami qurilish-pudrat ishlari hajmidagi ulishi 26,0 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalar boʻyicha qurilish pudrat ishlar hajmi. (Mlrd.soʻmda)



2. Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha;

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarda oʻtkazilgan monitoring kuzatuv natijalariga koʻra ular tomonidan bajarilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 2018-yil yanvar-sentyabr oylarida 579,0 mlrd. soʻmga yaqin miqdorida baholandi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 100,1 foizni, jami qurilish-pudrat ishlari hajmidagi ulishi 35,1 foizni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha qurilish pudrat ishlar hajmi. (Mlrd.so'mda)



3. Qurilish pudrat ishlar hajmi jami norasmiy sektor bo'yicha:

2018 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 640,5 mlrd. so'm miqdorida baholandi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 foizni, jami qurilish-pudrat ishlar hajmidagi ulushi 38,9 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektor bo'yicha qurilish pudrat ishlar hajmi. (Mlrd.so'mda)



Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi boshlig'i
K.A.Utalov.
Telefon: 230-86-70, 230-86-71.